

Ona yurti - oltin beshig

TONG yulduzi

№41 (66426)
2003 yil
20 oktabr
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqq boshlagan

21 oktabr O'zbek tiliga davlat
maqomi berilgan kun

O'ZING JARANGDORSAN, O'ZING MAFTUNKOR

Jarangdorsan, maftunkor ey, ona tilim,
Ajdodlardan qolgan buyuk merossan.
Senda so'zlaganda zavq olar dilim.
Senda so'zlaganda yayraydi tilim.

Navoiy bobomiz asos solgan til,
Bobur bulbuldayin sayratolgan til.
O'zing jarangdorsan, o'zing maftunkor,
O'zbekning o'zligin bunyod etgan til.

Shahnoza XO'JANOVA,
A.Navoiy nomli Respublika Nafis san'at litseyi
o'quvchisi.

TILIM

Tilimdan bol tommas,
Achchiq ham emas.
Yaraydi qalbdagin izhor etishga.
Uzunmas, unchalik
Qisqa ham emas,
Yetadi bo'yimdan tortib ketishga.

Mohira MANNOPOVA,
Toshkent shahar, Akmal Ikromov
tumanidagi 14 - maktabning 3 - «A» sinf
o'quvchisi.



Men Oybek nomli 12- maktabda
o'qiyman. Bu maktabda mening otam,
amakilarim ham tahsil olishgan. Bu yil
esa mening singilcham- Nargiza 1-
sinfga olti yoshdan bordi. U ham men
kabi maktabni yaxshi ko'rib qoldi.
Barcha sharoitlari muhayyo bo'lgan,
chiroyli maktabni yaxshi ko'rmas
bo'ladimi axir? Sinf xonalari keng,
yorug'. Sport maydonchalari, sport
zallari hamisha o'quvchilar bilan gavjum.

Maktabimizdagi aka- opalarimiz
Respublikada bo'ladigan barcha ko'rik-
tanlovlarda, bellashuvlarda ishtirok
etadilar. Doimo g'olib bo'lib qaytadilar.
Buning bosh sababi, ustozlarimizning
bilimdonligida bo'lsa kerak. Har bir
bayram va

USTOZ MEHNATI BO'LS...

tantanalarni nishonlash

bizda yaxshi an'anaga aylanib qolgan.

Yaqinda 21 oktabr- o'zbek tiliga Davlat maqomi
berilgan kun munosabati bilan «O'zbek tilim- o'z tilim»
deb nomlangan tadbir o'tkazdik. Kechada Navoiy
bobomizning g'azallaridan, o'zbek tili haqidagi maqol,
matal va rivoyatlardan yod oldik. Qo'shiqlar kuylab, raqsga
tushdik.

Tadbirimizni qiziqarli chiqishida albatta ustozimizning
hissalari katta bo'ldi.

Yuqori sinfdagilarning aytishlaricha, ustozimizdan
saboq olgan o'quvchilar aqlli, odobli va bilimli bolalar bo'lar
ekan. Biz ham doimo shunday o'quvchilar bo'lishga
harakat qilamiz.

Nilufar IBROHIM qizi,
Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi
12- maktabning 2- sinf o'quvchisi.

Shoirlar bolalarga

5

RAOAMLI SHE'R

3qun dedi: 3uvchilik-
Mening chin orzuimdir!
3uvchi bo'lish 3un,
Intilmoq mavzuimdir!

3

«4» va «5» ga o'qiyman
Hamma fanga uquv bor,-
Desam, dadam dedilar:
«Uquvda ham uquv bor!»

Kerak barcha fan mag'zin,
Chuqur chaqa bilmoqlik.
Har 1 ishga hamma vaqt,
Chin dildan intilmoqlik.

«2»lanish yaramas,
Bari bu pand berar.
Ish 10gidan kelsin deb,
Yashaganlar dur terar.

Durniku, bilasan-a,
Bo'lur dengiz qa'rida.
G'ovvoslikni bilganning,
Mo'may bo'lur xaridi.

Intil, o'g'lim, 1 zumni,
O'tkazmagin behuda.
Shunda ishing 10 bo'lur,
Barini qilib udda!

Hamroqul SULAYMONOV
Chinoz shahri.

4

O'ZINGGA YOZILAMIZ

Qadrdonimiz «Tong yulduzi»! Sen bizning
sirdoshimiz, suhbatdoshimizsan. O'tgan yili senga
obuna bo'lib, yanglishmagan ekanmiz. Yil
davomida sahifalaringda e'lon qilnayotgan she'r,
hikoya va maqolalarni miriqib
o'qidik, boshqotirmalarini
yechib, aqlimizni charxladik.
Ayniqsa, maktabdoshlarimiz maqola va
xabarlarining bosilib turishi senga bo'lgan
qiziqishimizni yanada oshirib yubordi.

Yaqinda sinfimiz o'quvchilari bilan bu yil ham
senga obuna bo'lishga kelishib oldik. Endi har bir
soningni intizorlik bilan kutamiz. Ishonamizki, bu
yil ham bizni zeriktirib qo'ymayсан.

Nigora OLIMOVA.

HAVASIM KELADI

Bolaligimdan o'qituvchi bo'lishni orzulardim. Orzuim -
maktabga chiqib, mehribon ustozlarim ta'sirida yanada
mustahkamlandi. Ayniqsa, Nilufar Ehsonova, Rahima
Yo'ldosheva, Munajat Abdusalomova,
Nargiza Maqsudova singari mehdaryo,
bag'rikeng ustozlarimga juda havasim
keladi. Ularning bolalar bilan boladek tillashishlarini,
o'z fanlarini jonli va qiziqarli o'tishlarini kuzatib, ulardek
bo'lishga ahd qildim.

Orzu-havas bilangina biron maqsadga erishib bo'lmasligini
juda yaxshi bilaman. Shuning uchun ham hozirdanoq puxta bilim
olishga, ustozlarimdagi barcha fazilatlarini o'zimdagi shakllantira
borishga astoydil harakat qilyapman.

Gulhoyo MADRAHIMOVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi
33 - maktabning 6 - sinf o'quvchilari.

Bir maktabdan qo'sh maktub

MINNATDORMIZ

Ustoz! Bu kasb egalarini qanchalik e'zozlasak oz. Ushbu mashaqqatli kasbni ardoqlab kelayotgan insonlar xalq hurmatida.



Biz tahsil olayotgan tibbiyot

Ustoz haqida so'z

kollejida ham qalbidaryo ustozlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ana shunday ustozlarimizdan biri «Odam anatomiyasi va patalogiyasi» fani o'qituvchisi Anvar aka Ortiqovdir. O'z kasbiga sidqidildan yondoshib, yosh avlod tarbiyasida jonbozlik ko'rsatayotgan Anvar aka Toshkent Davlat Meditsina oliygohini imtiyozli diplom bilan tugatib, shu oliygohda asistent lavozimida faoliyat ko'rsatdi. So'ngra, Oxunboboyev nomli Respublika Tibbiyot bilim yurtida ham talabalarga dars berdi. 1997 yildan boshlab bizning tibbiyot kollejimizda faoliyat ko'rsatmoqda. Anvar akaning o'nlab dasturlari, ilmiy maqolalari e'lon qilingan. Ustozning dars o'tish jarayonida ko'rgazmali qurollar asosida talabalarga chuqur bilim berishi, barchaning diliga birdek yo'l topa olishi tahsinga loyiq. Biz ustozimiz Anvar aka Ortiqovdan berayotgan saboqlari uchun hamisha minnatdormiz.

Feruza OBIDOVA,
O'DK Tibbiyot kolleji II-bosqich,
30-guruh talabasi.

VATAN

Vatan, sen otamdiansan,
Munis mehribon onam.
Vatan, sen akamdiansan,
Yoki munisa opam.

Vatan, sen suyanchig'im
Farzanding, dilbandingman.
Tildagi shirin so'zim,
O'rgilay sendan o'zim.

Ko'rib tarovatingni,
Qalbim g'ururga to'lar.
Jo'shib haroratingni,
Bitmoq orzuim bo'lar.

Mashhura ISKANDAROVA,
Oqdaryo tumanidagi 10-maktab o'quvchisi.

MAMNUNLIK

1970 yil Moskvadagi Xalqaro «ISME» festivalining diplomiga sazovor bo'lgan o'zbek qizi Surayyo Tillaxo'jayevani zalda tomoshabinlar gulduros qarsaklar bilan qarshi olishdi. Uning orkestr jo'rligidagi ijrosi yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Ayniqsa, otasi Qahhor akaning quvonchi cheksiz, u qizini yetuk musiqashunos bo'lishini orzu qilgan edi. Uning duosi ijobat bo'ldi. Dastlab Gliyer nomidagi musiqa maktabida tahsil olgan Surayyo, keyinchalik konservatoriyaning ham muvaffaqiyatli tamomladi. So'ngra, ish faoliyatini o'zi tahsil olgan Gliyer nomidagi musiqa maktabida yoshlarga saboq berishdan boshladi. Mana, qator yillardan buyon bu dargohda o'quvchilarga musiqa sirlarini qunt bilan o'rgatib kelmoqda. Mehridaryo ustozning berayotgan saboqlaridan bo'lajak musiqachilar juda mamnun. Uning o'ta talabchanligi o'quvchilarni o'z ustida tinmay ishlashga undaydi. Yaqinda Namangan shahrida bo'lib o'tgan konkursda eng yaxshi konsertmester diplomini qo'lga kiritgan Surayyo opa nafaqat o'z yutug'i, balki shogirdlarining yutug'i bilan ham haqli ravishda faxrlansa arziydi. Uning ikki nafar o'quvchilari birinchi, ikki nafari ikkinchi va to'rt nafari uchinchi o'rinni olishga muvaffaq bo'lishdi. Ha ustoz hamisha o'zi berayotgan saboqlarining natijasidan mamnun bo'lishiga nima yetsin?!

Tuhfaniso ORTIQOVA.



GO'ZALLIK YARATAMAN

Yaqinda bir sinfdoshimizning tug'ilgan kuniga borgandik. Eng yaqin dugonam sochini turmaklab qo'yishimni iltimos qildi. Buni qarangi, tantananing sababchisi bir chetda qolib, maqtoqlar uning sha'niga yog'ilib ketdi. «Voy, soch turmaging biram chiroyli chiqibdiki, qaysi salonda qildirding?», deya atrofini o'rab olishdi qizlar. «Nargizaning sartaroshxonasida», deya hazil qildi dugonam. «Voy, guldek hunaring bor ekan-a, bizga ham o'rgat», deya iltimos qilishdi dugonalarim. Yozgi ta'til kunlarida vaqtimni behuda o'tkazmay, «Ayollar sartaroshligi» o'quv kursida hunar o'rganganimdan juda xursand bo'lib ketdim. Soch turmaklarim dugonalarimga ma'qul bo'ldimi, demak mendan yomon sartarosh chiqmas ekan. Bunda albatta ustozimiz Zemfira opaning xizmatlari beqiyos. O'ta tajribali va talabchan bo'lmaganlarida, bu hunarni o'rganishimiz amri mahol edi. Ustozimizning chaqqon qo'l harakatlarini, ishga mehr bilan yondoshishlarini, mijozlarining go'zal va ko'rkam, eng muhimi, mamnun qiyofada chiqib ketishlarini kuzatib, ularga juda havasim kelardi. Maqsad sari astoydil

intilish albatta o'z samarasini berarkan. Hozir bu hunarga ancha qo'lim kelishib qoldi. Kelgusida ustozimdek mohir sartarosh bo'lib, «Orasta begoyim»dek go'zallik saloni ochishni orzulayman. Buning uchun esa hozirdanoq harakat qilyapman. Dugonalarim, singillarimning sochlarini kesib, turmaklab, tajribamni oshirib boryapman.

Nargiza RIXSIBOYEVA,
O'zDJTU qoshidagi Akmal
Ikromov akademik litseyining
2 - bosqich talabasi.



Aziz bolajonlar, barchangiz chet el filmlarini sevib tomosha qilasiz-a? E'tibor bergan bo'lsangiz, ko'pgina bolalarbop filmlarning qahramonlari g'ildirakchali konki uchib yuradilar. Bu chet ellik tengdoshlaringizning eng sevimli mashg'ulotlaridan biri hisoblanadi. Bizda esa sportning bu turlari, ekstrim - ya'ni, g'ildirakchali konki, skaytbor va tog' velosipedi uchish unchalik rivojlanmagan. Bunday sport ishqibozlari boru, lekin ularning biron bir uyushmasi, klublari yo'q. Yaqinda «Sog'lom avlod uchun» jamg'armasidagilar maktab va mahallalarda anketalar tarqatib, sportning bu turiga qiziquvchilarni jamlashdi.

Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek bog'ida jamg'armaning 10 yillik yubileyiga bag'ishlangan «Ekstrim - giyohvandlikka qarshi» mavzusidagi I - Yoshlar festivali bo'lib o'tdi. Bolajonlar dunyoga mashhur sport turlari bilan bog'liq tadbirning tomoshabinlari bo'libgina qolmay, uning ilk qatnashchilari ham bo'lishdi. Sog'lom turmush tarzini targ'ib va tashviq qiluvchi shou konsert dasturlarida miriqib tomosha qildilar, musobaqalarning bevosita ishtirokchilariga aylandilar. I - bosqichlar ishtirok etgan 400 nafar

ishtirokchilar orasidan II - bosqich uchun 40 nafar rolikchilar, skeytbordchilar va tog' velosipedchilari tanlab olindi. II - bosqichda esa tepalikdan tezlik bilan

ROLIKDA SAYR



G'ildirak ustida

tushish, to'siqlarni yengib o'tish kabi murakkab mashqlarni bajarishdi.

Festivalning III - bosqichida Gran-pri - barcha ishtirokchilar va g'oliblarga esdalik sovg'alari ulashildi.

-Rolikli konkini uchganimda, o'zimni osmonu falakda yurgandek his qilaman, deydi tadbirning eng yosh ishtirokchisi - shahrimizdagi 242 - maktabning 2 - sinf o'quvchisi 7 yoshli Tamara Ishonova. -U menga qandaydir yengillik, zavq-shavq bag'ishlaydi. Shuning

uchun ham bellashuv bo'lishini eshitib, juda quvonib ketdim. Gap faqat g'alabada emas-ku. Muhimi, ko'pchilik orasida o'zimni sinab ko'rdim, yangi do'stlar ortirdim, kamchiliklarimni bilib oldim.

-Ko'pincha televizor orqali turli sport musobaqalarini ko'rganimda, nima uchun sportning bu turi bo'yicha bellashuvlar uyushtirilmas ekan-a, deya ajablanardim, deydi tengdoshlari orasida eng yuqori ko'rsatkichga erishgan poytaxtdagi 18 - maktabning 9-sinf o'quvchisi Mixail Chuprinin. -Men sportning bu turi bilan 8 yildan buyon shug'ullanaman. Ko'chada do'stlarim bilan o'zaro musobaqalar o'tkazib turamiz. O'z kuchimiz, imkoniyatlarimizni sinab ko'ramiz, mahoratimizni oshiramiz. Biroq, keng davralarda, kattalar nigohida o'z mahoratingni namoyish etishning o'zi bo'lmas ekan. Biroz hayajonlandim. Lekin bor kuch va imkoniyatlarimni ishga solib, yaxshi natijalarga erishdim. Ishonamanki, yurtimizda sportning bu turlariga ham e'tibor yanada kuchayadi...

Biz ham shunga umid qilamiz. Chunki u bolalarni dadillikka va epcillikka o'rgatadi.

Javlon SA'DULLAYEV.

O'zTV ijodkori

-Aziz bolajonlar! Sizlar kabi sho'x-shodon bolaligim keng dalalar bag'rida, qaldirg'ochlar halinchagini yoyib kelayotgan qirlar qo'ynida o'tdi. Maktabda barcha fanlarni yaxshi o'zlashtirardim. Ayniqsa, gumanitar fanlarga ishtiyoqim baland edi. Ustozlarimizning har bir darsini jon qulog'imiz bilan tinglab, adoqsiz savollarga ko'mib tashlar edik. Darslarimiz shunday qiziqarli o'tardi-ki, hatto qo'ng'iroq chalinsa ham hech birimiz joyimizdan jilmasdik. Dars tayyorlamay kelishdan, past baho olishdan, qiz bolalar ham, o'g'il bolalar


Hadis

«Qarindoshlarga mehr-oqibatsiz odam jannatga kirmag'aydir». «Kimki rizqim ulug', umrim uzoq bo'lsin desa, qarindosh-urug'lariga mehr-oqibatli bo'lsin».

ham uyalishardi.

Uyimiz joylashgan ko'chadagi qator hovlilarda san'atkorlar istiqomat qilishar, ularni kamtarinligi, el orasidagi hurmatini ko'rib, katta bo'lsam albatta san'atkor bo'laman, deb orzu qilardim.

Otam - Latifjon aka o'qituvchi, onam - Qumri opa jamoa xo'jaligi raisi bo'lganlar. Onam kun bo'yi dala kezib, uyga kech qaytganlari uchun, barcha uy yumushlarini uddalashimda ammalarimning ta'siri katta bo'lgan. Ammalarim xuddi onam kabi bizga juda mehribon, g'amxo'rlik ko'rsatardi. San'at yo'lini tanlashimda ham katta



ammamning: «Qani endi sen ham «O'tkan kunlar»dagi Kumush rolini ijro etuvchi aktrisa bo'lsang, men hammaga maqtanib gapirib yursam», degan so'zlari hamon qulog'imda jaranglab turibdi...

Maktabni tugatganimdan so'ng, Mannon Uyg'ur nomidagi San'at oliyohida tahsil oldim. Ustozim Abdurahim Sayfuddinovdan bu kasbning nozik sirlarini qunt bilan o'rgandim. Onamning aytishlaricha, ilk marotaba zangori ekranda «Kuylang yosh xonandalar» ko'rsatuvida boshlovchilik qilganimda, ammam qattiq betob ekanlar. Meni televizorda ko'rib, quvonchdan yig'lab yuboribdilar. Yaqinlarimning xursandchiligi men uchun eng oliy mukofot edi.

Bolalik xotiralarimni bejiz gapirmayapman. Chunki endilikda o'zim bolalar studiyasida ishlayman. Bolalarning har biri bir dunyo.

Eng avvalo ularni dilini tushunish lozim. Ishimizning nozikligi har bir bolaning qobiliyati, talaffuzi, o'zini tuta bilish madaniyatini to'g'ri

Hadis

«Kim bir birodarining betobligini so'ragani borsa, u jannatning bog'ida bo'ladi». «Do'stlikni musahkamlaydigan narsani sizlarga aytaymi? Salomni o'z oralaringizda keng yoyinglar».

«Andijon tumanimizdagi Bekobod qishlog'imiz ta'mi tilni yorar qovunlar, rang-barang gullari bilan go'zal, sevimli. Odamlari sahovatli, sabr-bardoshli. Ularni husnini aytmaysizmi? Tabiat go'zalligidan andoza olgandek. Ayniqsa, qizlarining chiroyi tillarda doston...

Bolaligimda uyimiz yonidagi anhor bo'yida dugonalarim bilan qoshimizga o'sma qo'yganimiz, kimniki qora qoldi, kimniki bundayroq... bahslashganimiz yodimda. Qosh o'smadan suv ichar, deganlari rost. O'sma qosh va kipriklarni o'stirib, ko'zni ravshan qilishi ham. Dugonalarimning go'zalligi ham ehtimol tabiat bergan husnni tabiiy xna va o'smalar bilan yanada yashnatib yashaganidandir. Hozirchi? Qizlarimiz payvasta qoshlarini qilday qilib teradilarmi-yey, kipriklariga kimyoviy moy-bo'yoqlar chaplaydilarmi-yey... Men ozoda kiyinib, tartib va intizomga rioya qilgan, pardoz qilib emas, balki sog'lom va tozaligini ko'z-ko'z qilgan qizaloqlarni yaxshi ko'raman. O'z ko'rsatuvlarimda ham ana shunday qizlarni boshlovchilik uchun saylayman», deydi O'zbekiston televedeniyesi bolalar studiyasi rejissyori Zamira Begimqulova.

NUTQ DARS I

talqin qila bilishimizdadir. Eng muhimi ularning ko'nglini bezdirmaslikda.

Shunga harakat qilaman chog'i, atrofimdan bolalar arimaydi. Endilikda o'z hayot yo'lini topib, el nazariga tushgan shoiru yozuvchilar ham, rejissyoru radio-televideniye jurnalistlari ham kechagi bolalar,

Ko'rsatuvlarimiz uchun bolalarni o'zimiz ixtidoriga qarab tanlab olamiz va tayyorlaymiz.

Albatta ish jarayonida ularning

tajribalari orta boradi. Men maktablarimizdagi hozirgi o'qitish jarayoniga to'xtalib o'tmoqchiman. Dars paytida o'quvchilarga ustozlarimiz varaq-varaq konspektlar yozdirishadi. Adabiyot, tarix fanlaridan konspekt o'rni bolalarni ko'proq o'qiganlarini so'zlab berishlariga e'tibor berishsa, ularning nutq madaniyati yaxshi rivojlanadi. Masalan, bir bolaning talaffuzida «Osmonga yulduzlar chiqar ekan» degan jumlaning eshitib, rosti, xafa bo'ldim. Axir qator she'rlarni yod olib, ifodali o'qish, mustaqil so'zlab berishlar, nutq madaniyatini shakllantirish davri emasmi?

«Oqshom ertaklari» ko'rsatuvini tayyorlashda ham bolalar ertaklarni kutishlarini sezib turaman.

Jajji bolajonlarimiz o'zbek xalqining ertaklarini multfilmlar holida ko'plab ko'rishsa. Hozir bu borada ish olib borayapmiz. Turli xil liboslar, rang-barang ko'rinishlar, bir-birini takrorlamaydigan mavzular tanlayapmiz. Kelajakda ertaklarimiz xuddi multfilmlar singari qiziqarli bo'ladi va bolajonlarimiz multfilm asosida o'z ertaklarimizni ko'rishadi.

«Tong yulduzi» gazetasining o'quvchilari

badiiy adabiyotlarni ko'proq o'qishsin. Ulardagi qahramonlar haqida o'rtoqlariga takror-takror so'zlab berishsin, bir-birlari bilan doimo fikr almashsinlar. Nutq mahorati oshadi. Hayotda har so'zni o'z o'mida, ta'sirli qilib so'zlashga ne yetsin!

Jamila ERDONOVA
yozib oldi.

mening ko'z o'ngimda ulg'aygan muallif va boshlovchilarim ekanligidan faxrlanam.

Ustozlarim: Akmal Haydarov, Maxfuza

Hamidova, Hamid Qahramonovlar hayotimda katta maktab yaratishgan. «Sehrlil harflar orolchasi», «G'aroyib Kentga sayohat», «Buvim yopgan non», «Botmay qolgan oy» kabi qator sarguzasht va yumoristik ko'rsatuvlarim, videofilmlarimni bolajonlarimiz qiziqib tomosha qilishsa, ustozlarimdan quvonib yashayman. Axir ustozlar-da, insonni inson qiladigan!

Shu kunlarda Zoir Mamajonov asari asosida «Gulxan atrofida gilar» videofilmi ustida ish olib borayapman.

Ko'rsatuvda ishtirok etish uchun tayyor bolalar keladimi yoki ish jarayonida ularning tajribalari ortib boradimi, deb so'rashingiz mumkin.

Hadis

«Bir-biringizni g'iybat qilmang, g'iybatchi jannatga kirmag'aydur». «Chaqimchilik eng katta gunohlardandur».



UMIDLI DUNYO



Bu dunyo - umidli dunyo. Inson oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun tinmay mehnat qiladi. Adam va oyim ham dunyodagi barcha odamlar, jumladan, biz ham yaxshi umid va orzularimizga yetaylik, umidlarimiz ushalsin, deb ismimni Umida qo'yib, qizimiz ham umidiga yetsin, degan ekanlar. Qolaversa, mening tug'ilishim ham yaxshi niyat, umidning ushalishi bilan bog'liqdir.

Umida INOG'OMOVA.

NARSISS GULI

Mening ismim Nargiza, ya'ni narsiss gulini anglatadi. Ismimni aziz buvijonim qo'yganlar.

Men tug'ilishimdan oldin buvijonim betob bo'lib, shifoxonada yotgan ekanlar. Ularga Nargiza ismli hamshira qaragan ekan. U juda ham muloyim, oq ko'ngil, mehribon qiz bo'lib, o'ziga oppoq xalati juda yarashgan ekan.

Doimo kulib turadigan hamshiraga havaslari kelib, nabira ko'rsam uni Nargiza deb atayman, deya niyat qilgan ekanlar. Men ham o'sha hamshira qizdek barchaning dardiga davo topsam deymen.

Nargiza JALILOVA.



YOQIMLI NAVO



Mening ismim Dilrabo. Ismimni buvijonim qo'ygan ekanlar. Nega aynan Dilrabo qo'yamiz, deb adajonim so'rganlarida, ular shunday javob bergan ekanlar:

-Dilrabo - bu yoqimli kuy, o'zgalarni o'ziga ohangrabodday tortib, maftun qiluvchi, degan ma'noni anglatuvchi ismdir. Katta bo'lganida ana shunday qiz bo'lib yursin, deya niyat qilgan ekanlar.

Dilrabo JO'RAYEVA.

NASL NASABDAN SO'LLAR

Ismim - Mirakbar. Adam hazillashibmi, rostdanmi, mir - tinchlik degani dedilar. Buvimlar esa «mir» - amir so'zidan olingan bo'lib, nasl-nasabimizni bildiradi, biz mir avlodimiz, dedilar. Akbar esa Ollohu qulluq qiluvchi, ta'zimga chorlovchi kabi ilohiy so'zlardan biri ekan. «Ollohu akbar» deyishganda, ismimdan faxrlanib qo'yaman. Axir ismim bir kunda qayta-qayta tilga olinadi-da.

Mirakbar TOLIPOV.

Aziz o'quvchilar! Inson bu yorug' dunyoda ko'z ochganida, hayoti davomida bo'lib o'tadigan voqea-hodisalarga uning ismi ma'lum miqdorda ta'sir ko'rsatar ekan. Shuning uchun ota-bobolarimiz o'z farzandlariga hamisha yaxshi ismlar qo'yishga harakat qilganlar. Ism qo'yilayotganda ayrimlar qo'llariga kitob olib, ism ma'nosini anglab yetgan holda qo'ysalar, ayrimlar o'zlari havas qilgan inson nomini qo'yishgani bizga ma'lum. Yunusobod tumanidagi 274-maktabning 7-sinf o'quvchilari o'z ismlarini kim, qanday qo'ygani, qolaversa, uning ma'nosi haqida bizga yozib yuboribdilar. Ularni o'qib, siz ham «Nega ismim..?» rukniga maktub yo'llashingiz mumkin.

SODIQ FARZAND BO'LAMAN



Mening ismim - Elyor. Dadamlar men tug'ilganimda xursand bo'lib chiroyli ism qidiribdilar. Ismi ham chiroyli, ham ma'noli bo'lsin, deb yaxshi niyat bilan nom tanlabdilar. Vataniga, eliga yor, sodiq, vafodor bo'lsin, deya Elyor qo'yibdilar. Dadamning umidlari ushalishi uchun elimga sodiq farzand bo'lishga harakat qilaman.

Elyor ISAMUHAMMEDOV.

ISMNI TO'LIQ AYTISH KERAK

Ismim - Kamoliddin. Buvajonim nabiram kamolga yetib yursin, deb shu nomni qo'ygan ekanlar.

Ba'zan o'rtoqlarim kamol deb chaqirishadi.

Menimcha, ismni to'liq aytish kerak. Qolaversa, ismimning yana bir ma'nosi - dinning kamol topishi ham degani-ku! Islom dini qanchalik ravnaq topsa, odob-xulqda yana ham kamolga yetaveramiz. Buvajonim afsuski hozir hayot emaslar. Lekin men zavol ko'rmay, kamolga yetaman, albatta.

Kamoliddin MIRJALILOV.



DUR DONALARIDEK ORZULAR



Mening ismimni adamlar qo'yganlar. Durdona - forsha ism bo'lib, pok, shaffof, toza, qimmatbaho tosh degan ma'noni anglatadi. Qizim katta bo'lganida xayoli va iboli bo'lsin, deb shunday ism qo'yishgan. Kelajakda dur donalaridek oppoq orzularim ushalishida ismim yor bo'lishiga ishonaman.

Durdona HASANOVA.

XORAZM LAZGISI

Bir kuni dadamlar oynai jahonda «Quvnoqlar va zukkolar» ko'rsatuvini tomosha qilayotgan ekanlar. Shunda guruh sardori Gulnozaning bilimdon, chaqqon va aqlliligiga qoyil qolibdilar. Bellashuv so'ngida Gulnoza Xorazm lazgisiga shunday raqsga tushibdiki, o'tirganlarning barchasi unga maftun bo'lib qolibdilar. Axir Gulnozaning o'zi ham asli xorazmlik ekan-da. Xullas, Gulnoza sardor bo'lgan guruh g'olib bo'libdi.

Dadam shu qizga havas qilib, ismimni Gulnoza deb atabdilar.

Gulnoza JUMABEKOVA.

SOG'INIBDI MENI QISHLOQ'IM

Yuragimda sog'inchim lim-lim, Vujudimni yondirar kuyib. Meni tashlab, chopar xayolim, Qishloq tomon bag'rimni o'yib. Sog'inibdi meni dalalar, Imo qilib bag'riga chorlar. Qirda kutar intiq lolalar, Ko'zlarida zo'r sevinch porlar. Sog'inibdi meni maysalar, Qayda eding, deya so'roqlar. Tovonimga sanchib nayzalar, Qo'yormaymiz, der chirmovuqlar.

Shahnoza RAVSHANOVA,

Toshkent viloyati, Chirchiq shahridagi 2 - ixtisoslashtirilgan o'rta maktabning 6 - «V» sinf o'quvchisi.

Sog'inibdi meni dugonam, Qolaqol, deb ortimdan yurar. Gul ko'zida miltirab shabnam, Tashlab ketma, deya yolvorar. Sog'inibdi meni qishlog'im, Sog'inibman juda uni ham. Shovqinidan bitib qulog'im, Shaharni tark ayladim shu dam. Yuragimda unar qizg'aldoq, Qaytsam yana shahar qo'yniga. Meni kutar intizor qishloq, Sog'inchlarim osib bo'yniga.

XAVOTIR



Mening ismim Shahlo. Buvim qo'ygan ekanlar. Meni hali ko'rmagan bo'lsalar-da, nabiram shahlo ko'zli, chiroyli qiz bo'lsin, degan niyat bilan shu ismni tanlabdilar. Menga ism qo'yilib, guvohnoma olinganidan so'ng, dadam oyim ikkimizni uyga olib kelibdilar. Buvim tezda yo'rgakni ochib ko'zlarimni ko'ribdilar. Chunki ismni to'g'ri qo'ydimmi deya ancha xavotirlangan ekanlar. Ismni to'g'ri tanlaganliklariga ishonch hosil qilib, nabiramning baxti ham o'ziga o'xshab chiroyli bo'lsin, deya duo qilibdilar.

Shahlo SADRIDDINOVA.

OY QIZIMAN

Mening ismim Aziza. Adajonim qizim barchaga aziz bo'sin, deb menga shu ismni qo'yganlar. Men maktabda a'lo baholarga o'qiyman. Bo'sh vaqtimda she'rilar yozib turaman. Quyida oyijonim meni erkalatib aytgan so'zlarini she'r qilib yozganman:

Aqli teran oy qizim,
Zukkolikka boy qizim,
Iqboling baland bo'lsin,
Zehning kundan-kun to'lsin,
Armonlar bilma qizim.
Aziza ZAYNIDDINOVA.



ONA TABIIAT FARZANDLARIMIZ

Kuz kelibdi. Sovuq shamol esibdi. Qushlar dala, bog'lar bilan xayrlashib, issiq o'lkalarga uchib ketishibdi. Daraxtlar yaproqlari sarg'ayib, birin-ketin yerga uchib tusha boshlashibdi. Shunda ular ohistagina shivir-shivir qilishibdi:

-Oh, essizgina, issiq yoz kunlari o'tib ketdi-da. Kuz kelib, holimiz xarob bo'ldi. Endi yer bilan yakson bo'lamiz...

Shunda hali sarg'ayib ulgurmagan yaproqlar maqtana ketishibdi:

-Bizning rangimizga bir qarang. Hali-beri yerga tushish niyatimiz yo'q...

Shu payt izg'irinli shamol esibdi. Daraxtning qizil, sariq, hatto yashil yaproqlari ham to'kila boshlabdi. Hozirgina maqtanayotgan yam-yashil barg ham yerga tushib, hijolat bo'lganidan barglar orasiga berkinib olibdi.

-Mening chiroyli barglarim, sira xafa bo'lmanglar, -deya tasalli beribdi ularga kekka chinor. -Sizlar mendan uzoqqa ketmaysizlar. Qish bo'yi qor tagida mazza qilib uxlaysizlar. Erta bahorda esa mening tanamga singib, quvvat bag'ishlaysiz. Tanamdagi yangi, yam-yashil yaproqlar timsolida mangu yashaysiz...

Bu gapdan ko'ngillari taskin topgan yaproqlar qorning tagida miriqib uyquga ketishibdi.

*Malika RAHMONBEKOVA,
O'zbekiston jahon tillari universitetining
2 - bosqich talabasi.*

Bir kuni daraxtlar - olcha, gilos, shaftoli, o'rik, anjir, olma, nok, majnuntol, chinor suhbat qurishibdi. Gilos debdi: «Mening buvamni, buvimni Anvar aka o'tin qilaman, deb chopib tashladi. Tunov kuni Jalil ismli bola kelib shoximga osilib sindirib olib, mevamni chala yeb, otib yubordi. O'sha joyim zirqirab og'rib ketayapti.

- Xafa bo'lma, seniki holva, - dedi yong'oq. Bir bola shoximni sindirib, yong'oqlarimni otib yubordi. Sindirmaganda shirin-shakar mevalarimni yerdi, xomligida nobud qildi.

Shunday qilib, hamma daraxtlar odamlarni yomonlashdi. Shaftoli:

-Kelinglar, qaysi birimiz yaxshi daraxt ekanligimizni o'ylab ko'raylik. Men eng yaxshi daraxtman. Bo'yim baland, mevam shirin.

-Voy-voy, - dedi o'rik. - Nega endi sen yaxshi daraxt bo'lasan. Mevang usti tuk bilan qoplangan. Uning ustiga danaging qattiq, mag'zi achchiq. Mana meni olsak, mevam chiroyli, danagim nozik, mag'zim ham shirin. Eng yaxshi daraxt o'ziman.

- Men yaxshi daraxtman, - dedi yong'oq. - Mevamni bolalar o'ynashadi, mazza qilib yeyishadi. Hammalari shovullashib shoxlari bilan bir-birlarini turta boshlashdi. Shunda kekka chinor:

-Urishmanglar, hammamiz ham ona tabiatning farzandlarimiz. Barchamizning o'ziga xos mevamiz, rangimiz, bolimiz bor. Hammamiz ham insonlar uchun yaratilganmiz, -dedi. Buni insonlar bilishi shart.

*Maftuna JAMOLOVA,
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi 3-o'rta maktabning 7-sinf o'quvchisi.*



YAPROQLAR DARAXTLAR SHIVIR-SHIVIRI

Qadim o'tgan zamonda, juda olis tomonda, odamlarning ko'zini quvnatadigan, dillarni yashnatadigan bir chamanzor bo'lgan ekan. Uning bag'rida atirgul, binafsha, rayhonu gulsafsarlar ahil-inoq yashasharkan. Ular mayin shabbodada tebranib raqsga tushishar, o'zlaridan ajib ifor taratib, qo'shiq kuylashar ekan.

Bir kuni ularning orasida begona o'simlik paydo bo'libdi.

-Sening isming nima? - so'rashibdi undan gullar saflari yanada kengayayotganidan quvonib.

-Ismim gulpechak, -debdi u.

-Tezroq unib-o'sib, davramizga qo'shil, -deya quyosh nurlaridan bahramand qilishibdi.

Gulpechak esa yaxshilikka yomonlik bilan javob qaytaribdi. Yon-veridagi gullarning tanasiga o'ralib olib, ularning kuch-quvvatlarini so'ra boshlabdi. Shuning hisobiga tezlik bilan o'sib, boshqa gullarga, daraxtlarga ham chirmasha boshlabdi.

ODOBSIZ GULPECHAK

-Gulpechakjon, chamanzorimiz juda keng-ku, bizga chirmashib olmasdan, o'zing o'savermaysanmi? Quyosh nurlari ham hammamizga yetadi, -deya iltijo qilishibdi gullar uning atrofidagi quriy boshlagan gullarga rahmlari kelib.

-Meni Gulpechak deydilar. Qanday xohlasam, shunday o'saverman. Bora-bora chamanzorning yolg'iz egasi men bo'lam, -deya ko'krak keribdi.

Shu payt chamanzorga kirib kelgan bog'bon uni tag-tugi bilan yulib olibdi-da, qo'y-qo'zilarining oldiga tashlabdi.

Chamanzordagi gullar nomi gul bo'lgani bilan hamma o'simliklar-ham gul bo'lavermasligini anglab yetishibdi.

Qissadan hissa shuki, nomi inson bo'lgani bilan, hamma ham bu nomga munosib bo'lavermas ekan.

*Nilufar TURSUNOVA,
Andijon viloyati, Asaka tumanidagi 18 - maktabning 9 - «A» sinf
o'quvchisi.*

O'sha paytlarda 9-sinfda o'qir edik. Sinfimizda Erkin degan bola bor edi. U boshqalardan ancha ajralib turar, negadir xayol surib, o'ychan nigohlarini bir nuqtaga tikkancha xayol surishni yaxshi ko'rardi. Biz ba'zida uni xayol surib o'tirganda cho'chitib yuborishni yaxshi ko'rardik va uning ustidan mazza qilib kulardik.

Bir kuni sinf rahbarimiz yuqori sinf o'quvchilari paxtaga chiqadi, ertaga tayyorgarlik ko'ringlar, indinga ketamiz, dedilar. Hammayoqda qiy-chuv bo'lib ketdi. Chunki paxta paytlari mazza-da. Xullas, hammamiz taraddud ko'ra boshladik. Avtobuslarga o'tirib, paxta dalasiga yo'l oldik.

Erkinni oyog'ida eskirganidan taglari zo'rg'a yopishib turgan etikni ko'rib, avvaliga qiynalishgandir-da, deb o'yladik. Lekin Erkinlar qiyin ahvolda yashashmaydi-ku. Xullas, Erkin ana shu etigini sira oyog'idan tashlamadi. Biz uni mazax ham qildik, jiddiy gapirdik ham, ammo u bizni gapimizni eshitmagandek qo'l siltab ketaverdi.

Bir kuni paxta pullarini oladigan

bo'ldik. Hammamiz birgalashib Erkinga yangi etik olib berishga ahd qildik. Sinfoshlar ozginadan pul tashlashib,

Erkinga yangi etik sotib olish uchun bir sinfdoshimizni markazdagi bozorga yubordik. O'sha kuni Erkin uxlab yotgan paytda eski

Kuz... Atrofni oltin barglar bilan o'ragan bu saxovatli fasl boshlanishi bilan maktab ham boshlanadi. Ariqlarda tiniq bo'lib oqayotgan suvlar, daraxtlardan birma-bir uzilib tushayotgan barglar odamga o'zgacha kayfiyat bag'ishlaydi. Kishini o'ychan, parishonxotir qilib qo'yadi. Beixtiyor qalbning tub-tubida cho'kib yotgan xotira uyg'onadi. Xalqimizda Xotira uyg'onsa, go'zaldir, degan ibora bor. Albatta, odam ana shu shirin, gohida achchiq xotiralar bilan yashaydi. Ayniqsa, yoshlik, maktab davrlari odamni entiktirib yuboradi. Men sizlarga hikoya qilib bermoqchi bo'lgan voqea har doim yuragimni o'rtab yuboradi. Ana shu xotiralarimni esa siz bilan o'rtoqlashishga ahd qildim.

etiklarini oldigu, o'rniga yangisini qo'yib, eski etigini anhora uloqtirdik...

Ertasiga Erkin o'rnidan turib, etiklari o'rniga yangi etik turganini ko'rdu, eskisini qidira boshladi. Hammamiz zimdan uni kuzatardik. U yig'lagudek

ko'zlarini pirpiratib, hammamizni krovatlarimizni tagini qarab chiqdi. Biz unga etigini suvga otib yuborganimizni aytdik. Shu payt u yig'lab yuborsa bo'ladimi? Nima bo'lganini tushuna olmadik. Shunda u: -Bu etikni

menga dadam olib bergandilar, - dedi. Shundagina biz q i l i b



Keyinchalik u ham dadasi xastalangan kasallik bilan og'ridi. Biz uni kasalxonaga ko'rganini borganimizda,

avvalo qilib qo'ygan o'sha gunoh ishimiz uchun undan uzr so'radik. Shunda u ma'yusgina kulib qo'ydi. Erkinning o'sha nigohlarini sira ham yodimdan chiqara olmayman. Chunki etikni anhora uloqtirish fikri mendan chiqqandi. Men Erkindan shuncha gunohimdan o'tishini so'rasam-da, o'zimni-o'zim kechira olmasdim. Hademay paxta mavsumi yana boshlanadi. Dalaga chiqqanimizda xohlasam, xohlamasam, ana shu voqea esimga tushaveradi.

Mana, Erkinning bizni tashlab ketganiga hademay ikki yil bo'ladi. Lekin men o'zimni hecham kechira olmayapman.

*Shavkat ESHMURODOV,
Toshkent viloyati,
Parkent tumani, So'qoq
qishlog'idan.*

ERKINNING ETIGI


O'Z GAZETAMIZGA OBUNA BO'LSAK EDI

Jasur JO'RABOYEV,
Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek
tumanidagi 64- maktabning 11- «B» sinf
o'quvchisi:

- Men siyosiy, iqtisodiy kitoblarni o'qishga qiziqaman. Prezident asarlarini deyarli o'qib chiqdim. Gohida kitob o'qiyotganimda o'zbekcha- inglizcha- ruscha lug'atdan foydalanaman. Demoqchimanki, kitob bizni faqat yaxshilik ko'chasiga yetaklaydi.

Shu o'rinda gazeta va jurnallarni ham muntazam o'qib turish kerak. Albatta gazeta, jurnallar o'quvchining qiziqishi va yoshiga mos bo'lishi juda muhim. Bu gapni bilsak-da, sinfimiz bilan «Vecherniy Tashkent» gazetasiga obuna bo'lganmiz. Tengdoshlarim hayron bo'lishayotgandir. Ammo biz o'quvchilar bu gazetani hatto qo'limizga ham olmaymiz, chunki gazeta bizga berilmaydi.

Har kitobni o'qib
tugatganda aql
bolalaydi.



G'OLIBLAR SAYOHATI

Dilbar ABDUKARIMOVA,
Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumanidagi Markazlashgan
kutubxonalar tizimi direktori:

- Mana shu kutubxonada yigirma yildan beri ishlayman. Bu yil davlatimiz tomonidan «Shuhrat» medali bilan taqdirlandim.

Bugungi tadbirda yuqori chirchiqlik kitobxon o'quvchilar ham qatnashyapti. Bu o'quvchilar «Soros» instituti tomonidan e'lon qilingan «Kitobxonlik kunlari» tanlovida qatnashib, g'oliblikni qo'lga kiritgan edilar. Uch kun davomida g'olib kitobxonlar «Turon» viloyat kutubxonasiga, O'zbekiston Respublikasi Milliy kutubxonasining o'smirlar bo'limiga sayohat qildilar. Bundan maqsad, kitobxon o'quvchilarni eng yangi texnologiyalar bilan tanishtirish, ularni kitobga, o'qishga bo'lgan ehtiyojini yanada o'stirishdir.

Kitob o'qiydiganlar
avvalo o'zlarini
yaxshilab tanib
oladilar.

KUTUBXONACHILAR, ZERIKMAYAPSIZMI?

Kutubxona - nurxona

1965 yilda tashkil etilgan
O'zbekiston Respublikasi
Davlat bolalar kutubxonasi
250 mingdan ziyod turli
mazmundagi kitoblarga
ega.

Shuningdek, kutubxonada
«Kichkintoy» bo'sh vaqtini
mazmunli o'tkazish markazi,
bolalarni psixologik
rivojlantirish uchun
«Rivojlantirish» o'smirlar
klubi, «Shum bola» video klubi
xizmatidan mamnun. Bu yerda
kitobxonlar «Kompyuter-
olami» bo'limida kompyuter
bo'yicha tajribali
mutaxassislardan saboq
oladilar.

Yaqinda O'zbekiston
Respublikasi davlat
bolalar kutubxonasida

«Kitobxon bolalar
rivojlanayotgan mamlakat» mavzusida davra
suhbati bo'lib o'tdi. Unda Oliy majlisning
deputatlari, hokimiyat vakillari,
jamoatchilik, madaniyat arboblari, xalq
ta'limi xodimlari va albatta maktab
o'quvchilari ishtirok etdi.

Kitob - o'qiganga
ilmu urfon,
o'qimaganga
armondur.

E'TIBORLI BO'LAYLIK

Muhtaram SOATOVA,
Andijon viloyati, Xonabod shahridagi
markazlashgan kutubxonalar tizimi,
kutubxonachi:

- Avvalo kutubxonachilar xususida. Mening nazarimda kitobxon bir karvon bo'lsa, uning sarboni kutubxonachi hisoblanadi. Shunday ekan, o'quvchilarni kitobxonlikka jalb qilishda kutubxonachining xizmati katta ahamiyatga ega. Biroq...

Yaqinda shahrimizdagi oltita maktab kutubxonasida bo'lganimda kutubxonachining hech qanday ma'lumoti yo'qligiga guvoh bo'ldim. Bu ahvolda qanday qilib biz o'quvchilarni kutubxonaga jalb qilishimiz mumkin.

Demoqchimanki, kutubxonachilarga e'tibor juda kam. Ularga o'z ish joylarida vazifalarini ado etishga imkon yaratish kerak.

ENG YAXSHI KITOBXON

Bahrom NORMATOV,
Yuqori Chirchiq tumanidagi 3-
o'rta maktabning 7- «B» sinf
o'quvchisi:

Yaxshi kitob - uxlab
yotgan fikrlarni
uyg'otuvchidir.

- Maktabimiz kutubxonasida biz istagan kitoblar mavjud. Xohlaganini olib o'qishimiz mumkin.

Yaqinda maktabimizda «Eng yaxshi kitobxon» tanlovi bo'lib o'tdi. Unda g'olib bo'lganlar bugungi tadbirda qatnashyaptilar.

Ammo ayrim sinfdoshlarim kitob o'qishga unchalik qiziqishmaydi. Bo'sh vaqtlari bekorga o'tib ketayotganidan achinaman. Axir yaxshi kitob ko'ngillarda varaqlanadi-ku. Buni yodda tutsinlar.

Feruza ODILOVA yozib oldi.




MAKTABGA SOVG'A

Jamoliddin FOZILOV,
O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi
Vazirligi, ma'naviy va ma'rifiy ishlar
boshqarmasi boshlig'i:

- Maktab kutubxonalarida yigirma foizgina kutubxona mutaxassisligiga ega xodim ishlaydi. Bu, albatta achinarli. Qayerdagi kutubxonachi tajribali bo'lsa, o'sha yerda kitobxonlar safi kengayib boraveradi.

Ko'plab maktablarda bitiruvchi o'quvchilar o'z imzolari bilan uka va singillari uchun kutubxonaga yangi kitob sovg'a qilishga odatlangan. Bundan maqsad, avvalo kutubxonani yangi kitoblar bilan boyitish, o'quvchilarni kitobxonlikka yanada qiziqitirishdir.



QOLDIQSIZ BO'LISHNI BILASIZMI?

Matematika shunday qiziqarli fanki, uning jonsiz raqamlari yordamida turli qiziqarli hisob-kitoblarni amalga oshirish mumkin. Ulardan biri qoldiqsiz bo'lishdir.

Uni quyidagicha amalga oshiramiz. Istalgan bir sonni olaylik. Masalan, 1625. Keltirilgan raqamlarni bir-biriga qo'shib chiqamiz. Natija $14(1+6+2+5)$ kelib chiqadi. 1625 dan $14(1625-14)$ ayirsak, natija 1611 ga teng bo'ladi. Olingan son (1611) to'qqizga qoldiqsiz bo'linadi, ya'ni $1611:9=169$.

Boshqa sonlar misolida ham yuqoridagi mulohazani tekshirib ko'ramiz:

$$1. 324. 3+2+4=9$$

$$324-9=3+5$$

$$315:9=35 \quad \text{qoldiq (0)}$$

$$2. 8365. 8+3+6+5=22$$

$$8365-22=8343$$

$$8343:9=927 \quad \text{qoldiq (0)}$$

$$3. 356789. 3+5+6+7+8+9=38$$

$$356789-38=356751$$

$$356751:9=39639 \quad \text{qoldiq (0)}$$

Endi yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtiramiz. Aytaylik, 3 xonali abs ko'rinishidagi son berilgan bo'lsin. Bu sondan uning raqamlari yig'indisini ayirsak: $abs-(a+b+s)=10^2a+10b+s-a-b-s=(10^2-1)a+(10-1)b$ hosil bo'ladi.

Oxirgi ifodaning o'ng tomonidagi har bir had 9 soniga karrali, demak, ularning yig'indisi ham 9ga karrali bo'ladi. Bunday berilgan abs soni 9 soniga qoldiqsiz bo'linadi. Bu mulohazani to'rt xonali son uchun ham keltirish mumkin.

Masalan, absd soni berilgan bo'lsin. Yuqoridagi amallarni takrorlaymiz:

$$absd-(a+b+s+d)=10^3a+10^2b+10s+d-a-b-s-d=(10^3-1)a+(10^2-1)b+(10-1)s, \text{ demak, } absd \text{ soni } 9 \text{ ga qoldiqsiz bo'linadi.}$$

Endi bu mulohazani (n+1) xonali son uchun ko'rib chiqamiz, ya'ni a,b.....s,d-
 $(a+b+.....+s+d)=10^na+10^{n-1}b+.....+10s+d-$

$$(p+1)ta$$

$$a-b-.....-s-d=(10^n-1)a+(10^{n-1}-1)b+.....+(10-1)s.$$

Oxirgi ifodaning o'ng tomonidagi har bir had 9 soniga karrali. Demak, ab....sd soni 9 ga qoldiqsiz bo'linadi.

$$(n+1)ta$$

p - ixtiyoriy son bo'lganligi sababli bu mulohaza har doim to'g'ri.

Bosh qotir



Ravshan MADRAHIMOV,
Toshkent shahar, Sirg'ali
tumanidagi 268 - o'rta
maktabning 7- «B» sinf
o'quvchisi.

TUYOQLI ODAM

Litseyda o'qib yurgan paytlarim edi. Bir kuni yarim tungacha dars tayyorladim. Endi yotishga chog'lanib turgandim, yuviladigan kiyimlarim borligi yodimga tushib qoldi. Erinmasdan yuvib qo'ya qolay, dedim-da, yotoqxonamizning yuvinish xonasiga bordim. Endi yuvib ham bo'lgandimki, eshik ohista ochilib, kimdir kirib keldi. Men avvaliga biror qiz kirgandir-da, deb e'tibor bermadim. Oyoq tovushlari mening orqamga kelib to'xtadi va y e l k a m n i o h i s t a g i n a yelkamga turtidi.

Qo'rqqanga qo'sh ko'rinar

O'girilib qaradimu dahshatdan qotib qoldim. Ro'paramda tanasi odam, boshi va oyoq-qo'llari echkini eslatuvchi g'aroyib maxluq turardi. Xonadan qanday otilib chiqqanimni eslolmayman. Qizlarni uyg'otib, bor gapni aytib berdim. Ular menga ishonishmadi. «Uyqusiragandirsan-da, ko'zingga ko'ringandir», deya orqalarini o'girib, uyquga ketishdi. Anchagacha qo'rqib o'tirdim. So'ng, balki rostdan ham ko'zimga ko'ringandir, deya o'zimni yupatib, o'sha yerda qolib ketgan kiyimlarimni olib kelish uchun bordim. Shu payt bir dugonam kirib qoldi. Unga ham bor gapni aytib berdim. U menga qarab oyoqlarini cho'zgan edi, ko'rib qo'rquvdan tilim kalimaga kelmay qoldi: uning ham oyoqlari echkining tuyoqlariga o'xshagan ekan...

Yorqinoy RASULOVA,

Farg'ona viloyati, Toshloq tumani, Navbahor
shirkat xo'jaligi.

OQBO'YIN

Oramizda uy hayvonlarini yaxshi ko'radigan odamlar ko'plab topiladi. Itlar nafaqat uyni qo'riqlaydi, balki u insonga eng yaqin va vafodor do'st ham ekan. Men sizlarga aytib beradigan voqeadan so'ng, bunga amin bo'lasizlar.

Bizning qishlog'imizda Odil bobo degan otaxon bo'lardi. Ularning kampiri allaqachon o'tib ketgan, kattagina hovlida yolg'iz, Oqbo'yin laqabli itlari bilan birga turardilar.

xabar olib ketishardi.

Odil bobo suvga

Vafodor it

tushibdilar. O'zlarini o'nglay olmay, turolmabdilar. Shunda Oqbo'yin qo'shnining eshigini oyoqlari bilan ochib, o'g'illarini bobo yiqilib yotgan joyga olib kelibdi. Qo'shnining o'g'li boboni uyigacha suyab olib kelibdi. Shu-shu Odil bobo

o'milaridan qo'zg'almaydigan bo'lib qolibdilar. Oqbo'yin

esa ularning yonidan jilmas, biror narsa kerak bo'lib qolsa,

kuchi yetsa o'zi olib kelar, bo'lmasa qo'shnilar yordamga

chaqirarkan. Oradan oylar o'tib, bahor kelibdi. Odil bobo

asta-sekin o'zlari yuradigan bo'libdilar. Hassalariga tayanib,

ko'chaga chiqsalar, Oqbo'yin eshikni ochib, yopib berar,

boboning oyoqlarini tagidan ketmas ekan. Itning shunchalik

vafodor ekanligini ko'rgan qo'shnilar hayratdan yoqa

ushlasharkan. Shunday kunlarning birida Odil bobo ko'chaga

ham chiqmay qolibdilar. Ora-chora kirib turgan qo'shnilar

boboning yana yotib qolganini ko'rib, farzandlariga xabar

berishibdi. Farzandlari boboni kasalxonaga olib borishibdi.

Oradan necha kunlar, haftalar o'tsa ham, bobodan darak

bo'lmabdi. Oqbo'yin esa hovlida yolg'iz, bobosiz zerikib, onda-sonda uvillab qo'yar

ekan. Qo'shnilar itni och qoldirmaslik uchun unga ovqat olib kelishsa ham, u yemas

ekan. Kunlarning birida boboni olib kelishibdi. Ammo u endi tirik emas ekan.

Oqbo'yin boboning yuzlaridan, ko'zlaridan yalab, uvillab yig'lay boshlabdi. Uni

ko'zidan tushayotgan yoshlarni ko'rgan qo'shnilar ham unga qo'shilib yig'lashibdi.

Odil boboni so'nggi manzilga qo'yib kelishibdi. Ammo Oqbo'yin ularning qabrlari

oldidan sira ketmabdi. Oradan bir hafta o'tgach, Oqbo'yinni qabr ustida cho'zilib

yotganini ko'rgan go'rkov qabristondan sal chetroqqa chuqur qazib, uni o'sha

yerda ko'mibdi...



Mohira SIROJIDDINOVA,
Parkent tumani, Xisorak qishlog'idagi 12-o'rta maktab o'quvchisi.

KO'KKA KO'TARILGAN QO'L

Mening amakim rassomlar. Ularning rasmlarini tomosha qilgan odam yana bir marta ko'rgisi, bunday quvonchni yana bir marta tuygisi keladi. Ularning ba'zida tushunib bo'lmaydigan narsalarni chizishlari hammani hayratga soladi. Hatto kelinoyimlar ham ulardan ba'zan xavotirlanib qoladilar. Buning sababi esa... Keling, yaxshisi men sizlarga amakim so'zlab bergan voqeani so'zlab bera qolay...

Kunlarning birida amakim o'qiyotgan guruhni tog' manzarasini chizish uchun sayohat qilishga hamda o'quvchilarning bilimlarini sinash maqsadida toqqa olib chiqishadi. Tog'dagi ochiq havo, chiroyli manzarali joylar hammani o'ziga maftun qiladi. Oradan bir-ikki kun o'tgach esa ularning

Kunlardan bir kun

guruhida turli g'ayritabiiy narsalar sodir bo'la boshlaydi. Guruhdagi avvalo ikki qiz kechalari alahsirab, kimlar bilandir gaplashib chiqishadi. Keyin ular o'rinlaridan turib, palatkalaridan chiqib ketadigan odat chiqarishadi. Bundan xavotir olgan domlalar qizlarni darrov uylariga jo'natishadi. Bir kuni ertalab hamma qo'llarida mo'yqalamlari bilan navbatdagi manzarani chizishga kirishishadi. Ammo mo'yqalamlari ularga bo'ysunmay, allanarsalarni rasmlarini chiza boshlaydi. Buni ko'rgan domlalar ham qolgan talabalarni olib, darrov uy-uylariga tarqalishadi. Talabalar dam olishgach, yana o'qishga chiqishadi. Ammo ba'zida hammasi bir xil rasmlarni - chalkashib ketgan chiziqlar orasidan qarab turgan bir juft ko'zlarni chizadilar. Bu rasmlar bilan ular nima demoqchi ekanini hech kim tushunmaydi. Oradan yillar o'tib, bitirish imtihoni keladi. Hamma domlalar bir narsadan: yana aynan shu guruh ana shu ko'zlar rasmini chizishdan cho'chib turishadi. Ammo bu safar ular hammasi ko'kka ko'tarilgan qo'llarning rasmlarini chizishadi. Sarosimaga tushgan domlalar ularni qaytadan imtihon topshirishga yozib berishadi. Ammo har safar talabalarga mo'yqalamlari bo'ysunmaydi va bir xil rasm chizishadi.

Xullas, amakimlarning guruhi o'qishni bitirishadi. Hamma sobiq talabalar hech narsa ko'rishmagandek uy-uylariga tarqalishadi. Ularning ko'pchiligi hozir oilali bo'lib ketishgan. Jumladan, amakimlar ham. Kursdoshlari bilan xat yozishib turishadi. Lekin albatta xatga «ilova» qilishib, ko'kka ko'tarilgan qo'llarning rasmini chizib yuborishadi...

Erkin FAYZIYEV,
Yuqori Chirchiq tumani, «O'zbekiston» jamoa xo'jaligi.

Bizning to'garak



Assalomu alaykum «Tong yulduzi» gazetasi tahririyati xodimlari! Men ham ijodkorman, qariyb besh yildirki, «Xalq ovozi» gazetasi tahririyati qoshidagi «Nihol» yosh qalamkashlar to'garagini boshqaryapman. O'zbekiston tumanining turli hududlaridan kelgan yosh ijodkor o'g'il-qizlarga she'r, hikoya, xabar, maqola va lavhalar yozishni mashq qildiraman. Mashg'ulotlarimizni yanada qiziqarliroq, mazmunliroq o'tkazish uchun har gal biron bir mavzuga bag'ishlaymiz. Tumanimizdan chiqqan taniqli shoirlar, ijodkorlar bilan uchrashuvlar, xotira kechalari uyushtiramiz. Jumladan, Oxunjon Madaliyevga bag'ishlab «Armonman ko'zdagi yoshlarda», Muhriddin Xoliqov va Muhammad Yusufni xotirlab, «Unutmoq osonmas sizlarni» kabi xotira kechalari tashkilladik. To'garagimiz ishtirokchilari bag'ishlov she'rlari yozib kelishdi. Shuningdek, Farg'ona viloyat yozuvchilar uyushmasidan Matluba Dehqon qizi, viloyat «Oydin» gazetasi muharriri Mahfuza Usmonova, Shuhrat Armon, Bahodir Iso kabi ijodkorlar ham to'garagimiz mehmoni bo'lishgan.

Quyida to'garak qatnashchilari ijodidan namunalar yuboryapmiz. Ular «Tong yulduzi» sahifalarida chop etilsa, juda xursand bo'lardik.

Mahfuzaxon RAHIMOVA,

Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi

«Xalq ovozi» gazetasining madaniyat va san'at bo'limi mudiri.

YOSH QIZLAR QIZLAR QIZLAR

Quvonchlarga boydir ko'zingiz,
Samimiyydir har bir so'zingiz,
Kulib turar gulgun yuzingiz,
Mening aziz, mo'tabar buvim.

Uzoq bo'lsin umringiz, deymiz,
Ardoqlaymiz, g'amingiz yeymiz,
Yoshingizga yetaylik, deymiz,
Mening aziz, mo'tabar buvim!

Dilshoda ABDULLAYEVA,
Farg'ona viloyati, Yaypan shahridagi
1 - maktabning 7 - sinf o'quvchisi.

SHOIRLAR QIZLAR QIZLAR

Xalqlar ichra yagona,
Nomi tilda dostona,
Sharqda o'zing durdona,
O'zbek elim, jon elim.

Ulg'ayib, kuchga to'lay,
Doim xizmatining qilay,
Shoira qizing bo'lay,
Go'zal guliston elim.

Mamlakatxon RAHMATILLAYEVA,
Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanidagi
13 - o'rta umumta'lim maktabining
8 - «B» sinf o'quvchisi.

«KO'ZIM
TUSHIB QOLDI»

-Dadasi, avtobus bekatida bir e'longa ko'zim tushib qoldi,-dedi Akromjonning oyisi dadasiga.

-Oyijon, ko'zingiz qaysi bekatda tushib qolganini ayting, darrov topib kelaman,-dedi jajji Akrom ko'zlarini pirillatib.



SOVUQ GAP

-Oyijon, o'rtog'im menga juda sovuq bir gap aytdi-da,-dedi Alijon xafa bo'lib.

-Akajon, o'rtog'ingiz sovuq gap gapirganda juda sovuq qotib ketgandirsiz-a? -suhbatga aralashdi ukasi.

Dilshod G'OFUROV,

Toshkentdagi 169 - maktabning 8 - «A» sinf o'quvchisi.

OLTIN
KUZIM

Xush ko'rdik oltin kuzim,
Kelganingdan biz xursand.
Dehqonlar bilmas tinim,
Kuz yumushi bilan band.

Boqqa kirsak daraxtlar,
Mevasin qilar ko'z-ko'z.
Anor, behi, olmalar,
Ta'rifi yo'qdir so'z.

Dalalarda «oq oltin»,
Hasharchilar bilmas tin.
Xirmonni qilib tog'-tog',
Sahiy kuzning sayliga.

O'g'iloy DONISHEVA,
Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi
51 - maktab o'quvchisi.



O'tgan sonda e'lon qilingan mantiqiy savolning javobi:

Shox.

-9 oy ishlab, 3 oy dam olmaymanmi,- dedi. Temirchi esa :

- Yo'q, mening ota-onamdan, bolalarimdan qarzim bor. Men ularni boqishim, qorini to'yg'azishim kerak,- deb

javob beribdi.

TOPISHMOQLAR

Onamga berar yordam,
Xizmatdadir u har dam.
Bolalari yonida,
Hushyor mehmon borida.




O'zi juda beozor,
Ketmas qishu yoz, bahor.
Ko'zi jajji tugmacha,
Nomi uning...



Dilmurod RIZAYEV,
Orom nomli bog'cha-
maktabning 3 - «D» sinf
o'quvchisi.

Gazetaning navbatdagi soni
3 noyabrda chiqadi.



«QISHNI KO'RASAN TUSHIDA»

Bir kuni maymoq polvon,
Onasin qildi hayron.
-Nega biz qish kunlari,
Uxlaymiz kun-tunlari?
Qishda zavqli o'yin ko'p,
Yayrashar do'stlarim xo'p.
O'ynasharkan qorbo'ron,
Qilisharkan to'polon.
Chana, chang'i uchishar,
Bir-birlarin quchishar.
Bezab katta archani,

Chaqirishar barchani.
Kelar emish qorbobo,
Sovg'alari bor bobo.
Uxlamay barmoq so'rib,
Zavqlanay qorni ko'rib.
Chana, chang'i uchayin,
Do'stlarimni quchayin...
Maymoqvoyni ovutib,
Unga maymunjon tutib.
Ona der:- Uxla qishda,
Qishni ko'rasan tushda.

Munisa KOMILOVA,
Akmal Ikromov tumanidagi
14 - maktabning 3 - «A» sinf o'quvchisi.

TONG
yulduzi

O'zbekiston bolalari va
o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
**O'ZBEKISTON
MATBUOT VA
AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOIIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI**

Bosh muharrir
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama
MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Nashir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
«O'zbekiston»
nashriyoti mathaa
bazasida chop etildi.
Adadi - 10976
Korxona manzili:
700129,
Toshkent,
Navoiy
ko'chasi, 30.
Buyurtma № 1 - 13
Gazetani
Muharrama
PIRMATOVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Jamila ERDONOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilibiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-63-08

144-62-34

Tel./faks:

(99871) 144-37-24